

Qo'shmurodov Asqar Juman o'g'li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi



O'ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI BO'YICHA VAKOLATLI ORGANNING OLIY TA'LIM MUASSASALARI BILAN HAMKORLIGI

Annotatsiya. *O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmati bo'yicha vakolatli organning oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligi kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va davlat boshqaruv tizimini samarali rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shakllari, ta'lim dasturlari va amaliyotlari, shuningdek, davlat xizmatining professional standartlarini ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi.*

Аннотация. *Сотрудничество уполномоченного органа по государственной гражданской службе Республики Узбекистан с высшими учебными заведениями направлено на подготовку кадров, повышение квалификации и эффективное развитие системы государственного управления. В статье анализируются формы сотрудничества с вузами, учебные программы и практики, а также механизмы обеспечения профессиональных стандартов государственной службы.*

Annotation. *The cooperation between the authorized body for public civil service in the Republic of Uzbekistan and higher education institutions is aimed at personnel training, professional development, and effective improvement of the public administration system. This article analyzes the forms of collaboration with universities, curricula and practices, as well as mechanisms for ensuring professional standards in civil service.*

Tayanch so'zlar: *davlat fuqarolik xizmati, oliy ta'lim muassasalari, hamkorlik, kadrlar tayyorlash, professional standartlar.*

Ключевые слова: *государственная гражданская служба, высшие учебные заведения, сотрудничество, подготовка кадров, профессиональные стандарты.*

Keywords: *civil service, higher education institutions, cooperation, personnel training, professional standards.*

***O‘zbekiston
Respublikasida
davlat fuqarolik
xizmati tizimi
mamlakatning
samarali
boshqaruvini
ta’minlashda
muhim ahamiyatga
ega. Davlat
xizmatining sifatli
ishlashi, asosan,
malakali va tayyor
kadrlar bilan
bog‘liq bo‘lib,
bu esa oliy ta’lim
muassasalari
bilan hamkorlik
zaruriyatini yuzaga
keltiradi.***

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmati tizimi mamlakatning samarali boshqaruvini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat xizmatining sifatli ishlashi, asosan, malakali va tayyor kadrlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik zaruratini yuzaga keltiradi.

Oliy ta’lim muassasalari davlat xizmatiga mo‘ljallangan kadrlarni tayyorlash, ularning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirish hamda professional standartlarga moslashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois, vakolatli organlar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik shakllari, ta’lim dasturlari va amaliyotlar samaradorligini oshirish, davlat xizmatining sifatini ta’minlash uchun muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikning asosiy shakllari, ularning kadrlar tayyorlash jarayonidagi roli va davlat xizmatining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Amerikalik iqtisodchi E.Denisonning 1929–1982-yillar oralig‘idagi tadqiqotlari xulosasiga ko‘ra, ishchi kuchi sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy faktor bu ta’lim tizimi hisoblanadi, ya’ni ta’lim tizimi inson kapitali shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil sifatida baholangan¹.

Tadqiqot ishimizning asosiy masalalaridan biri O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish va unga tegishli vakolatli organning oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorligini ochib berishdir. Zero, oliy ta’lim tizimini tamomlagan bo‘lajak mutaxassislarning ko‘pchiligi davlat xizmatiga, jumladan, davlat fuqarolik xizmatiga ishga kirar ekan, ushbu xizmat mohiyatini oliygohda tahsil olish davomida chuqur anglagan holda malakali kadrlar bo‘lib chiqishi lozim.

Shu sababli, mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, 2020-yil 23-sentabrda O‘zbekistonning yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni qabul qilingan edi. Mazkur Qonun jahon standartlaridan kelib chiqqan holda sohadagi keng qamrovli munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Ayni paytda, aytish joizki, har qanday davlatda ta’limni rivojlantirmay turib, davlatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Bu borada har ikki yo‘nalish bir-biriga uzviy bog‘liq hisoblanadi. Shu bois, yurtimizda ham ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

2023-yil davlatimiz rahbari tomonidan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilinishi bu boradagi ishlarning yanada jadallashtirilishini, ya’ni davlat ta’limi tizimini rivojlantirishni anglatadi. Bugungi kunda

¹ Rejapov X. X. Oliy ta’lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017.

sohani rivojlantirish maqsadida maktablar uchun yangi darsliklar, oliy ta'lim uchun o'quv qo'llanmalari ustida ishlar olib borilyapti. Bu borada Prezident maktablari va boshqa ixtisoslashgan maktablarning hamda oliy ta'lim tizimi negizida ta'lim muassasalarining tashkil etilishi bu sohaga katta e'tibor qaratilayotganining yaqqol namunasi hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Tadqiqot ishimizda ko'tarilgan asosiy masalalardan biri bo'lgan oliy ta'lim xizmatlari va davlat fuqarolik xizmati hamkorligining samarali rivojlanishi oliy ta'lim xizmatlari subyektlari bo'lgan oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki davr taqozosi shunday, ya'ni yangilanayotgan O'zbekistonda davlat boshqaruv sohasida, umuman, barcha sohaga innovatsion yangiliklarni kiritish asosidagina mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlash mumkin. Bu jarayon o'z navbatida respublikamiz ilmiy salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liq.

Yurtimizda Uchinchi Renessansga poydevor qurmoqchi ekanmiz, avvalo, boshqaruv tizimini, davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishimiz zarur. Buning uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir mutaxassislikdan yetuk kadrlar shakllantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun maktablar va oliy ta'lim muassasalarida aniq fanlar va tabiiy fanlarga katta e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib texnik va texnologik fanlar ham muhim yo'nalish sifatida alohida e'tiborga olinishi muhimdir. Zero, har bir yangilikni yaratish uchun ham barcha fanlarni mukammal egallagan, ularni bir-biri bilan bog'lay oladigan eng yaxshi mutaxassislar, kadrlar zaxirasi bugungi kun talabidir. Sababi faqatgina bir tomonlama rivojlanish orqali yangiliklarni yaratish, taraqqiyotga erishish juda ham qiyin masala.

Bundan ko'rinib turibdiki, davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish uchun javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, oliy o'quv yurtlarida malakali professor va o'qituvchilarning talabalar hamda magistr'larga berilgan bilimlar respublika taraqqiyotini ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, davlat fuqarolik xizmatining oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligini izchil yo'lga qo'yish asnosida mamlakatimizni ma'lum ma'noda ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish mumkin. Buni eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Yevropa ittifoqi davlatlari tajribasidan samarali foydalanib, mentalitetimiz ruhiga mos shakllantirishimiz kerak.

Bu hamkorlikning negizida Davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish agentligi (Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi) buyurtmachi, oliy ta'lim muassasalari ishlab chiqaruvchi, ya'ni malakali kadrlar yetkazib

Tadqiqot ishimizda ko'tarilgan asosiy masalalardan biri bo'lgan oliy ta'lim xizmatlari va davlat fuqarolik xizmati hamkorligining samarali rivojlanishi oliy ta'lim xizmatlari subyektlari bo'lgan oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq.

***Bo'lajak
mutaxassislarning
kasbiy
komponentlarini
shakllantirish,
bilim va
ko'nikmalarini
aniqlash,
ish tajribasi,
boshqaruv
salohiyatini
amaliyotda sinab
ko'rish uchun
zamonaviy axborot-
kommunikatsiya
texnologiyalaridan
foydalangan
holda ularga
o'quv soatlari
yoki kurslar,
shuningdek,
oliy ta'lim
muassasalarida
masofaviy ta'lim
tizimini tashkil
etish maqsadga
muvofiq bo'ladi.***

beruvchi tashkilotlarga vazifa yuklatilishi lozim. Shundagina oliy ta'lim muassasalari va davlat fuqarolik xizmatining o'zaro hamkorligi subyekti sifatida nafaqat boshqaruv kadrlarini, balki oliy ta'lim tizimining bakalavriat va magistratura bosqichlarining oxirgi kurs talabalari, soha mutaxassislari tanlab olish imkoniyati vujudga keladi.

Ushbu hamkorlikning maqsadi – davlat boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlariga malakali kadrlar tayyorlash, davlat xizmatiga intiluvchan, o'ziga ishongan, kreativ fikrlaydigan, tizimli tahlil qobiliyati yuqori bo'lgan mutaxassislarni jalb etish; mutaxassislarning kompetensiyalari (ko'nikmalari va bilimlari)ni takomillashtirib boruvchi uzluksiz kompleks tizimini yaratishdir². Mazkur tizim orqali boshqaruv va ijro hokimiyati organlari ishining shaffofligini ta'minlash, sohalarda mavjud muammolarni yetuk kadrlar bilan hal qilish mumkin.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy komponentlarini shakllantirish, bilim va ko'nikmalarini aniqlash, ish tajribasi, boshqaruv salohiyatini amaliyotda sinab ko'rish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ularga o'quv soatlari yoki kurslar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, bunday sharoitlar yaratilishi yuqorida qayd etilgan vazifani amaliyotga samarali tatbiq etish uchun yaxshi imkoniyatdir. Bunday o'quv soatlari yoki kurslar, treninglar davomida oliy ta'lim bitiruvchilarining biror-bir joyga ishga joylashishi yoki tayinlanishidan oldin berilgan vaziyatli masalani qanday qilib yechishiga qarab, aniq bir tashkilot yoki korxonaning muammolarini bartaraf etish uslubini inobatga olib, bir qator vazifalar bajarilishini monitoring qilib, kadrlar zaxirasini shakllantirish mumkin³. Shu tariqa har bir rahbarlik lavozimiga bir nechta nomzodni tayyorlash, talab etilganda kadrlar zaxirasidagi nomzodlardan munosiblarini saralash imkoniyati paydo bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda hamkorlik doirasida mavjud davlat fuqarolik xizmatchilarining ham malakasini muntazam oshirib borish tizimi shakllanmoqda. Misol uchun, joriy yilning 17-yanvar sanasida Prezidentimiz va O'zbekiston delegatsiyasi Singapur davlatiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Singapur Bosh vaziri Li Syan Lun bilan muzokaralarda yaqin istiqboldagi hamkorlikning beshta asosiy yo'nalishini ko'rsatib o'tdi⁴.

² Davlat xizmati tizimini isloh qilish sharoitida davlat kadrlar siyosati: O'zbekiston tajribasi va xorijiy amaliyot mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. – Toshkent, 2019.

³ Shu manba.

⁴ <https://president.uz/uz/lists/view/5825>

Jumladan ushbu yoʻnalishning 1-yoʻnalishi sifatida:

– Inson kapitalini rivojlantirish va davlat boshqaruvi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash,

– Li Kuan Yu nomidagi Davlat siyosati maktabi ishtirokida boshqaruv, shaharsozlik, infratuzilmani rivojlantirish, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, taʼlim va sogʻlikni saqlash sohalarida birgalikda davlat xizmatchilarini tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish dasturini amalga oshirishga kelishib olindi.

Shuningdek, Davlat boshqaruvi akademiyasi negizida Singapurning yetakchi ekspertlarini jalb qilgan holda davlat xizmatchilarini intensiv qayta tayyorlash dasturi ishga tushiriladi. Dasturga muvofiq, Oʻzbekiston davlat xizmatchilarini Singapurda oʻqitish yoʻlga qoʻyiladi. Shu bois, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi hamda Singapur Milliy universiteti tizimidagi Li Kuan Yu Davlat siyosati maktabi, shuningdek, Singapur Davlat xizmati kolleji bilan hamkorlik aloqalari oʻrnatilmoqda.

Dastlabki kelishuvga koʻra, 2023-yil mobaynida 200 nafarga yaqin davlat xizmatchilari Singapurda davlat boshqaruvi, davlat siyosati, davlat xizmati, inson resurslarini boshqarish hamda xalqaro aloqalar va global muammolar yoʻnalishlarida malaka oshiradi hamda stajirovkadan oʻtadi. (Shu oʻrinda maʼlumot uchun: Li Kuan Yu nomidagi Davlat siyosati maktabi dunyodagi eng yuqori nufuzga ega boʻlgan davlat boshqaruvi maktablaridan biri boʻlib, Osiyo pragmatizmi va Gʻarb taʼlimining eng ilgʻor yoʻnalishlarini oʻzida uygʻunlashtirgan. Maktab 2004- yilda tashkil etilgan boʻlib, shu yillar oraligʻida butun dunyo boʻylab 3 500dan ortiq lider bitiruvchilarni tayyorlab bergan.)

Yakuniy qism. Xulosa shuki, jamiyat sohalaridagi islohotlarning natijasi ularda faoliyat olib borayotgan kadrlar salohiyatiga bogʻliq. Demak, taraqqiyotga erishish uchun taʼlim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, taʼlim muassasalari, xususan, oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish talab qilinadi. Bu nafaqat milliy doirada balki xorijiy davlatlarning top reytinglarda yuqori nufuzga ega boʻlgan taʼlim dargohlari doirasida ham hamkorlikni samarali tashkil etish maqsadga muvofiq boʻladi.

Oliy taʼlim muassasalari va davlat fuqarolik xizmati boʻyicha vakolatli organ oʻrtasidagi hamkorlik samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu hamkorlik nafaqat kadrlar tayyorlash va malaka oshirish, balki davlat xizmatining professional standartlarini taʼminlash, oʻquv jarayonlarida amaliyot va nazariy bilimlarni uygʻunlashtirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvi akademiyasi negizida Singapurning yetakchi ekspertlarini jalb qilgan holda davlat xizmatchilarini intensiv qayta tayyorlash dasturi ishga tushiriladi. Dasturga muvofiq, Oʻzbekiston davlat xizmatchilarini Singapurda oʻqitish yoʻlga qoʻyiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda amalga oshiriladigan ta'lim dasturlari va loyihalar davlat xizmati kadrlarining sifatini oshirishga, ularning malakasini xalqaro standartlarga moslashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, hamkorlik shakllari davlat organlari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida uzluksiz muloqot va tajriba almashishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida qonun va amaliy tavsiyalar.* – Toshkent: Huquqiy nashriyot, 2017.
2. *Rejapov X. X. Oliy ta'lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017.*
3. *Davlat xizmati tizimini isloh qilish sharoitida davlat kadrlar siyosati: O'zbekiston tajribasi va xorijiy amaliyot mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.* – Toshkent, 2019.
4. *Axmedova F. Oliy ta'lim muassasalari va davlat xizmati kadrlarini tayyorlashdagi hamkorlik.* – Toshkent: "Universitet" nashriyoti, 2020.